



## **Tarix fanini o'qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish.**

**Muallif: Namangan viloyati Chust tumani 31-maktaning tarix fani o'qituvchisi Djo'rayeva Lazokat G'anijonovna.**

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturi qabul qilindi.

Maktab o'qituvchilarining bilim va ko'kikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarini zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo barpo etish maqsadida xalq ta'limi hodimlari oldiga ko'plab vazifalar qo'yildi.

Xususan, ushbu vazifalarni amalga oshirish borasida o'qituvchi pedagoglarga ham ulkan mas'uliyat yuklamoqda.

Bu borada Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash borasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'qituvchilar istagan turda, ya'ni onlayn yoki oflayn tarzda, besh yilda emas balki har yil i malaka oshirishi mumkin. Ushbu maqilada shular haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, didaktika, interfaol metodlar, zamonaviy model, xalqaro standartlar, "VR 360", "ISPRING" hamda "HotPotatols" dasturlar

Men ham shu yil may oyi davomida bir haftalik oflayn malaka oshirish kurslarida o'z malakamni oshirish maqsadida maxsus kurslar orqali ustozlardan saboq oldim.

Ta'lim olish jarayonida bugungi kun darslarga qo'yilgan talablar haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'ldim.

Hozirgi zamonaviy darsga qo'yiladigan eng asosiy talablar:

I – Didaktik talablar

II – Psixologik talablar

III – Gigienik talablar



#### IV – Texnologik talablar

Mazkur talablar asosida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. DTS talabini aniq va ijobiy bajarish.

2. O'quvchi bilim darajasi imkoniyatini aniqlash, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatini inobatga olish.

3. O'quvchilarning qiziqishi asosida aniq maqsadga yo'naltirish.

4. O'quvchilarning dastur asosida bilim darajasini shakllantirish, mustaqil fikrlashga e'tibor berish, ijodiy ishlarni to'g'ri va ob'ektiv baholash. Xulqini va bilimga bo'lgan tirishqoqligini ijodiy ballar asosida to'g'ri rag'batlantirish, xotirasini yaxshilash uchun erkin fikrlashga e'tibor berish.

5. Darsni oqilona rejalashtirish orqali ilmiy muhitni tashkillashtirish.

6. Darsda o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan tushuncha, ta'rif, teorema, hodisa-voqealarni bolalarga davr talabiga asosan etkazish. Bular orqali dunyoqarashini shakllantirish, fanlararo bog'lanishga ahamiyat berish.

7. O'quvchilarning ko'nikma va malakasini shakllantirish, o'quvchi imkoniyati va davr talabi asosida kasbga yo'naltirish.

8. Darsda fikrlatuvchi, mashq qildiruvchi, yangilik beruvchi, ijobiy ishlashga o'rgatuvchi ko'rgazmali qurollardan foydalanish, muammoli darslarni tashkil etish. O'quvchilarning fikrlashlarini takomillashtirish, ularni axborot va ma'lumotlarni tahlil qilishga o'rgatish.

9. Differensial ta'limni joriy qilib, o'quvchilarning bilim darajasini reyting tizimida xolisona baholash.

10. O'quvchilarda tahlil, sintezni va vaqtdan unumli foydalanishni o'rgatish.

11. O'quv xonasini zamonaviy talablar asosida jihozlash, unda ilmiy, texnika taraqqiyotidan unumli foydalanish hamda yordamchi vositalar bo'lishiga e'tibor berish.

12. Gigiena va estetika talablariga e'tibor berish va o'quvchilardan talab qilish.



13. Mavzu uchun o'qitish metodini to'g'ri tanlash, muammoli vaziyatlarning aniq echimlarini topish.

14. Darsda o'zini tahlil qilishga e'tibor berishlari lozimligini rejalashtirish.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi.

Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu -o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi.

Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'nanaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim.

Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.



Malaka oshirish kurslarida tavsiya etilgan ayrim metodlardan sizlarning e'tiboringizga havola etmoqchiman.

-Ha-yo'q mashqi

*Ta'rifi*

O'qituvchi bir nima (raqam, predmet, adabiy èki tarixiy qahramon va sh.o'.) ni o'ylab qo'yadi.

O'quvchilar esa unga savol berib, u nimani o'ylab qo'yganligini topishga harakat qiladilar. O'qituvchi ularning savollariga faqat "Ha", "Yo'q", "Ham ha, ham yo'q" so'zlari bilan javob beradi.

Savol nojo'ya berilgan èki o'qituvchi didaktika maqsadlaridan kelib chiqib, savolga javob berishni xohlamaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. SHunda u oldindan belgilangan ishora bilan javob berishdan voz kechadi.

Mashq yakunlanganidan so'ng albatta qanday savollar kuchli, qandaylari kuchsiz va nima uchunligi yuzasidan qisqa muhokama o'tkazish shart.

Mashqning maqsadi – bolalarni savollarni tartibsiz berishga urintirmasdan, ularni izlash strategiyasini ishlab chiqishga o'rgatishdan iboratdir.

-Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri

*Ta'rifi*

Har bir ishtirokchi bir varaq qog'ozda o'rganilaètgan èki o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri fikr va bitta noto'g'ri fikrni èzadi. Ishtirokchilar juftliklarga to'planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto'g'ri bo'lgan ekanligini aniqlaydilar.

*Foydalanish doiralari*

Uy ishini tekshirish vaqtida, har qanday o'quv fanida mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

*Afzalliklari*

Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi,



o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

### *Qiyinchiliklari*

Materialni o'zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari xavfi bor. O'qituvchiga fikrlar aniqligi va to'g'riligini kuzatish, mashqni o'tkazish uchun vaqtni mo'ljallab olish qiyin, chunki o'quvchilarda ko'pincha fikrlarni aniq ifodalash ko'nikmasi mavjud bo'lmaydi.

### *-Toza doska*

O'qituvchi doskaga mavzuga oid bir nechta atamalar yoki yillar, tarixiy shaxslarni yozishi mumkin. O'quvchilar esa birma-bir har bir so'zning to'g'ri javobini aytadi va doskadagi so'zlarni birma-bir o'chirib boraveradi. Natijada doska toza bo'ladi. Ushbu metod o'quvchilarni tezkorlikka va ephillikka, xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### *-Quvnoq halqa*

Sinf jamoasini 2 yoki 3 guruhga bo'lib, kichik halqachalarni ruchkalar yordamida tarixga oid atamalar aytib bir-birlariga uzatishadi. Har bir jamoa tezkorlik bilan yana birinchi o'quvchiga yetkazib berishi lozim.

Ushbu metod o'quvchilarni tezkorlikka, hushyorlikka va jamoaviylik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Undan tashqari tarix darslarini yanada qiziqarli tashkillashda zamonaviy electron dasturlar haqida ham ma'lumorga ega bo'ldik.

Xususan, tarix darslarini o'qitishda "VR 360", "ISPRING" hamda "HotPotatols" dasturlari yuqori samara berishini guvohi bo'ldik.

Yuqoridagi taqdim etilgan tavsiya va metodlar sizlarni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayoningizga samarali xizmat qilishiga umid qilaman.

.